



MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Namangan shahar

66 – umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

To'lqinova Oqila Yoqubjonovna

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim va unda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati, tanqidiy fikrlashni o'rgatishning strategiyalari haqida batafsil so'z yuritiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashda lingvodidaktikaning o'rni haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, tanqidiy fikrlash, maktabgacha ta'lim muassasasi, konsepsiya.

Abstract. This article elaborates the field education and the importance of pedagogy preschool education in education system, also strategies for teaching critical thinking in preschool education system. Besides, information is provided about the role of linguodidactics in critical thinking.

Key words: linguodidactics, critical thinking, preschool, concept.

Ta'lim konsaltingi bo'yicha xalqaro ekspert Liliya Muxametshina yaqinda Toshkentdagi Leader School tomonidan tashkil etilgan veb-seminarda oiladagi farzandlarning tanqidiy fikrlashini qanday rivojlantirish mumkinligi haqida gapirdi. Dunyo doimo o'zgarib turadi, yurist, buxgalter va boshqa zamonaviy kasblar o'nlab yillardan keyin "aqlli" qurilmalar va xizmatlar bilan almashtiriladi. Bu dunyoda yuqori malakali kadrlarga, texnologik va muloqotga oid ko'nikmalarga talab bo'ladi, ota-onalar o'z bolalari bilan muloqotda bo'lib va bo'sh vaqtlarini qiziqarli tashkil qilish orqali ularda ushbu ko'nikmalarni qanday shakllantirishi mumkin?

Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko'rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o'z navbatida tanqidiy



fikrlashga aylanadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim va yoki hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to'xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste'molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak.

Ota-onalarga savol: siz bolalaringizga savollar berasizmi? Bolalar bilan bunday muloqotni yo'lga qo'yish juda muhim, chunki bolalar avvalo oilada, ota-onadan yoki aka-uka va opa-singillardan savol berishni o'rganadilar va asta-sekin bu faoliyatni o'zlashtiradilar, shunday qilib, o'zlarini qiziqtirgan savollarni boshqalarga berishni o'rganadilar.

Shunday qilib, bolada tanqidiy fikrlash rivojlana boradi.

Avvalo, tanqidiy fikrlash nima?

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish ham tanqidiy fikrlashni bir ko'rinishidir. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

Ayniqsa, yosh bolalar uchun uning o'rni beqiyos.

Albatta, tanqidiy fikrlash - o'qish predmeti emas, balki o'qitish natijasidir. Shuning uchun ham uni lingvodidaktika fani bilan bog'lab o'rganish anchgina samarali hodisadir.

Lingvodidaktika – bu XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan nisbatan yosh fan. Lingvodidaktika, integral fan bo'lib, ta'limni o'rganish sharoitida tilni o'zlashtirish mexanizmlarini va ushbu mexanizmlarni boshqarish xususiyatlarini tavsiflash uchun mo'ljallangan.

Lingvodidaktika bir nechta mustaqil va bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'liq bo'lgan ilmiy fanlarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydi: metodologiya, lingvistika, pedagogika,



psixologiya, psixolingvistika; keltirilgan ilmiy fanlar bilan birgalikda chet tillarini o'qitishning lingvistik bazasini aks ettiradi.

Lingvodidaktika – bu til o'qitish nazariyasi, ya'ni o'qitish metodikasining nazariy qismi bo'lib, tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan fandır.

Lingvodidaktikaning asosiy tushuncha va kategoriyalari:

- falsafiy tushunchalar: shakl va mazmun, umumiy va individual, sabab va ta'sir; imkoniyat va voqelik, miqdor va sifat, nazariya va amaliyot, qonun va qonuniyat va boshqalar;
- umumiy ilmiy tushunchalar: tuzilish, funktsiya, tashkilot, jarayon, tushuncha, yondashuv, jihat, faoliyat, tamoyil va boshqalar;
- pedagogikaning umumiy tushunchalari: ta'lim, taraqqiyot, tarbiyalash, pedagogik eksperiment, pedagogik jarayon, pedagogik monitoring va h.k.;
- Lingvodidaktikaning o'ziga xos tushunchalari: tilni o'qitish, tilni o'rganish, akademik mavzu sifatida ona tili (va boshqa tillar), o'quv material, o'quv jarayoni, tilni o'qitish tamoyillari, usullari va uslublari va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya aoslari, savollar, javoblar (Kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma) – T.: “Talqin”, 2010-y.
2. O.R.Roziqov, M.H.Mahmudov; B.R. Adizov, A.R.Hamroyev. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 382 b.
3. Yo'ldoshev J.G'. Uzluksiz ta'lim: malaka oshirish muammolari va echimlari. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1991-y.
4. Ворожцова И.Б. Основы лингводидактики. Учеб.пособие. – Ижевск, Удмуртский государственный университет, 2007. – 113 с.